

5-Ma'ruza. Ish joyini tayyorlash va ishlashga ijozat berishga ruxsat etish.

► Reja:

I.	Ish joyini tayyorlash va ishlashga ijozat berish.
II.	Ish jarayonida nazorat olib borish.
III.	Brigadani boshqa ish joyiga ko'chirish.
IV.	Ish jarayonida tanaffus va ish tugashini rasmiylashtirish.
V.	Sinov savollari.

I. Ish joyini tayyorlash va ishlashga ijozat berish.

➤ Ish joyini tayyorlash va ishlashga ijozat berish faqat navbatchi yoki bunga vakolati bor shaxs tomonidan ruxsat olinganidan soʻng amalga oshirilishi mumkin. Issiklik avtomatikasi va oʻlchovchi uskunalarida ishlashga ijozat berish tartibi bundan mustasno.

➤ Ruxsat ish joyini tayyorlashni va ishlashga ijozat berishni bajaradigan shaxsga telefon, radio, chopar orqali yoki yaqin oʻrtadagi podstansiya navbatchisi orqali beriladi. Bunday ruxsatni oldindan berish qatʼiyan man etiladi.

➤ Brigadani faqat bitta naryad bilan ishlashiga ijozat beriladi.

➤ Naryadda ish joyini tayyorlashga taalluqli koʻrsatilgan chora-tadbirlarni oʻzgartirish man qilinadi.



➤ Ish joyini tayyorlashga taalluqli chora-tadbir to‘g‘ri va etarligiga hamda ishni xavfsiz bajarilishiga shubxa paydo bo‘lganda ish joyini tayyorlash to‘xtatiladi.

➤ Ishboshi ishlashga ijozat beruvchi vazifasini o‘rindoshlik yo‘li bilan bajargan taqdirda, u ish joyini brigada a‘zolaridan elektr xavfsizligi bo‘yicha III gruppaga ega bo‘lgan birortasi bilan tayyorlashi shart.

➤ Ishlashga ijozat beruvchi ishlashga ijozat berishdan oldin, ish joyini tayyorlashga taalluqli texnik tadbirlarni bajarilganligi to‘g‘risida ishonch hosil qilishi kerak. Ishonch, o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, tezkorlik jurnalida yozilgan yozuvga qarab, ishlab turgan elektr tarmoq chizmasidagi belgilariga qarash yoki navbatchi, tezkor-ta‘mirlovchi xodim va elektr energiya iste‘mol qiluvchi korxonada xodimining ma‘lumotlari orqali, hosil qilinishi mumkin.

➤ Ish rahbari va ishboshi ishlashga ijozat berishdan oldin ishlashga ijozat beruvchidan ish joyini tayyorlashda qanday chora-tadbirlar ko‘rilganini aniqlashi va bu joyni tayyorlash qanday bajarilganini bevosita shaxsan o‘zi ish joyida ko‘zdan kechirishi kerak.

➤ Ishlashga ijozat berishdan oldin ish joyi tayyorligini ish rahbari ishlashga ijozat beruvchi bilan birgalikda yoki uning ruxsati bilan ishboshi, ish rahbari yoki ishlashga ijozat beruvchi xodim bilan tekshirishi kerak.

➤ Elektr uskunada naryad va farmoyish bilan ishlashga ijozat berish bevosita ish joyining o‘zida amalga oshirilishi lozim.

➤ Farmoyish bilan ishlashda ish joyini tayyorlash kerak bo‘lmagan taqdirda brigadani ishlashga ijozat berish ish joyiga borib amalga oshirilishi shart emas, havo va kabel elektr uzatish, hamda havo aloqa tarmoqlarida esa talab qilinmaydi.

Brigadani ishlashiga ijozat berish, ish joyining tayyorligi tekshirilganidan so‘ng amalga oshiriladi. Bunda ishlashga ijozat beruvchi quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

- - naryad yoki farmoyishda ko‘rsatilgan brigada qismidagi hamma xodimlarni birma-bir shaxsiy guvohnomalariga qarab mosligini tekshirishi kerak;
- - yo‘riqnoma berishi (brigadani naryad, farmon mazmuni bilan tanishtirishi);
- - ish joyining chegarasini ko‘rsatishi;
- - ish joyiga yaqin turgan, kuchlanish yo‘qligidan qat’iy nazar, ularga yaqinlashish man qilingan ta‘mirlanayotgan va uning yonidagi qo‘shilish jihozlarining tok o‘tkazuvchi qismlari va uskunalarini ko‘rsatishi kerak;
- - brigadaga tarmoqdagi erga ulagichlar qo‘yish joyini ko‘rsatish bilan yoki erga ulagich ish joyi ko‘rinmagan taqdirda kuchlanish bor-yo‘qligini tekshirish bilan birgalikda, 35 kV va undan past kuchlanishli elektr uskunalarda iloji bo‘lsa, keyinchalik tok o‘tkazuvchi qismga qo‘l tekkizish orqali kuchlanish yo‘qligini isbot qilishi kerak.

➤ Brigada a'zolariga ishlashga ijozat beruvchidan tashqari ishboshi ham yo'riqnoma berishi kerak.

➤ U ish bajarish texnologiyasi, asbob-uskuna, yuk ko'tarish mashinasi va mexanizmlardan foydalanish to'g'risida yo'riqnoma berish bilan birgalikda ishni xavfsiz bajarish haqida ham yo'riqnoma beradi.

➤ Ish rahbari kerak bo'lganda yo'riqnomani to'ldirishi mumkin.

➤ Yo'riqnoma bermasdan brigadani ishlashga ijozat berish manqilinadi.

➤ Brigadaga yo'riqnoma berish va ishlashga ijozat berish, ishlashga ijozat beruvchi va ishboshining imzosi bilan naryading kuni va vaqti ko'rsatilib rasmiylashtiriladi.

➤ Ishlashga ijozat berishda o'tkazilgan yo'riqnomani, yo'riqnoma o'tkazish jurnalida rasmiylashtirishni talab qilinmaydi.

➔ **Ishlashga ijozat berish naryadning ham ikki nusxasida rasmiylashtiriladi. Naryadni bir nusxasi ishboshida, ikkinchisi esa navbatchi yoki tezkor-ta'mirlash xodimdan tayyorlangan ishlashga ijozat beruvchida qoldiriladi.**

➔ **Ishboshi, ishlashga ijozat beruvchi shaxs vazifasini o'rindoshlik yo'li bilan bajargan taqdirda ishlashga ijozat berish naryadning faqat bir nusxasida rasmiylashtiriladi.**

➔ **Farmoyish bilan ishlashga ijozat berish tezkorlik jurnalida yoki naryad va farmoyish bilan qilingan ishlarni qayd qilish jurnalida rasmiylashtiriladi (6-ilova).**



СТОЙ!
НАПРЯЖЕНИЕ

**ОЧИЛМАСИН
ОДАМЛАР
ИШЛАМОҚДА**

8



**ТЎХТА
КУЧЛАНИШ**

3



**ЧИҚМА
ЎЛДИРАДИ!**

5

**УЛАНМАСИН
ТАРМОҚДА ИШ
БАЖАРИЛМОҚДА**

7

**ШУ ЕРДАН
ЧИҚИЛСИН**



НЕ ВКЛЮЧАТЬ!
работают люди

НЕ ВКЛЮЧАТЬ!
работа на линии


НЕ ОТКРЫВАТЬ!
работают люди

**ПОСТОРОННИМ
ВЫХОД
ВОСПРЕЩЕН**

ОТВЕТСТВЕННЫЙ
ЗА ПОЖАРНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

ОТКАРТА ЗВОНКА 112 01

 **КАБЕЛЬ**
под
напряжением

 **ВЫСОКОЕ
НАПРЯЖЕНИЕ**
опасно для
жизни

 **СТОЙ!**
ОПАСНО ДЛЯ
ЖИЗНИ

НЕ ЗАКРЫВАТЬ!
РАБОТАЮТ ЛЮДИ


НЕ ВКЛЮЧАТЬ
КАБЕЛЬ ПОВРЕЖДЁН

ОТВЕТСТВЕННЫЙ
ЗА СОБЛЮДЕНИЕ ПРАВИЛ
ТЕХНИКИ БЕЗОПАСНОСТИ

220 В

380 В

НЕ КУРИТЬ

 **НЕ ВЛЕЗАЙ**
убьёт

**ВЛЕЗАТЬ
ЗДЕСЬ**

**РАБОТАТЬ
ЗДЕСЬ**

ЗАЗЕМЛЕНО

**РАБОТА
ПОД НАПРЯЖЕНИЕМ**
повторно не включать!

 **СТОЙ!**
НАПРЯЖЕНИЕ



СТОЙ!
НАПРЯЖЕНИЕ



СТОЙ!
ОПАСНО ДЛЯ
ЖИЗНИ



НЕ ВЛЕЗАЙ
убьет

НЕ ВКЛЮЧАТЬ!
работают люди

НЕ ВКЛЮЧАТЬ!
работа на линии



ВЫСОКОЕ
НАПРЯЖЕНИЕ
опасно для
жизни

РАБОТАТЬ
ЗДЕСЬ

НЕ ОТКРЫВАТЬ!
работают люди

ЗАЗЕМЛЕНО

ВЛЕЗАТЬ
ЗДЕСЬ



220 В

380 В

II. Ish jarayonida nazorat olib borish.

- **Ijizat** berilgandan so'ng brigada a'zolari tarafidan xavfsizlik talablarini bajarilishi ustidan nazorat ishboshiga yuklatiladi. U iloji boricha xavfi ko'proq ish bajarilayotgan joyda bo'laturib, o'z ishini shunday tashkil qilishi kerakki, o'sha erdan turib ishlayotgan hamma brigada a'zolari ishini nazorat qilaoladigan bo'lsin.
- **Nazorat qiluvchiga** brigada a'zolarini nazorat qilishdan boshqa biror ishni o'rindoshlik yo'li bilan bajarilishi man qilinadi.
- **Mabodo** ishboshi ish joyidan vaqtincha ketishi kerak bo'lib qolsa, uning o'rnini ish rahbari, ishga ijizat beruvchi yoki naryad berish huquqiga ega bo'lgan xodimga almashtirish imkoni bo'lmasa, ishboshi brigadani ish joyidan chiqarib yuborishi shart (taqsimlovchi uskuna joylashgan hududdan ular chiqarilib, eshiklar qulflanadi, xodimlar elektr tarmog'i tayanchidan tushiriladi va hokazo).

➤ **Ishboshi almashtirilganda, u naryadni o'z o'rniga vaqtinchalik qoldirilgan xodimga berib ketishi kerak.**

➤ **1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunada farmoyish bilan ish bajarilayotgan bo'lsa ishboshining qisqa muddatga ketishiga ruxsat etiladi. Bunday paytda brigadaning elektr xavfsizligi bo'yicha gruppasi III bo'lgan bir yoki bir nechta a'zolari ish joyida qolib ishni davom ettirishlari mumkin.**

➤ **Ishboshining ruxsati bilan brigada a'zolaridan biri yoki bir nechtasi ish joylaridan vaqtinchalik ketishlari mumkin. Bunda ularni brigada tarkibidan chiqarish talab qilinmaydi. 1000 V kuchlanishdan yuqori bo'lgan elektr uskunada ish joyida qolgan brigada a'zolarining soni ishboshi bilan hisoblanganda ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak.**

➤ Elektr xavfsizligi bo'yicha gruppasi III bo'lgan brigada a'zolari taqsimlovchi uskuna joylashgan xonadan mustaqil chiqib, yana ish joyiga qaytib kelishi **mumkin**. I va II gruppaga ega bo'lgan brigada a'zolari esa faqat III gruppaga ega bo'lgan brigada a'zosi yoki elektr uskunani yakka o'zi kirib chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxs hamrohligida chiqib yana ish joyiga qaytib kelishlari mumkin. Taqsimlovchi uskunalar joylashgan xonadan chiqib ketishda eshikni ochiq, qulflamagan holda tashlab ketish man qilinadi.

➤ Ishga qaytgan brigada a'zolari faqat ishboshining ruxsati bilan ishga tushishlari mumkin. Agar elektr uskuna joylashgan xonani qulflashni iloji bo'lmasa, ishboshi qaytguniga qadar brigada a'zolari ish joyini tashlab ketishga haqqi yo'q.

➤ Amaldagi Qoidani buzish hollari aniqlanganda yoki ishlayotgan ishchilar hayotiga xavf tug'diruvchi holat sezilganda darhol brigada ish joyidan chiqarilishi va ishboshidan naryad tortib olinishi kerak. Aniqlangan kamchiliklar bartaraf qilingandan so'nggina birinchi bor ishga ijozat berish qoidasi talablarini bajargan holda yangidan ishga qo'yish mumkin.

III. Brigadani boshqa ish joyiga ko'chirish.

➤ Elektrostansiya va podstansiyalarning 1000 V kuchlanishdan yuqori bo'lgan elektr uskunalarda brigadani boshqa *ish joyiga ko'chirishni ishlashga ijozat beruvchi shaxs bajaradi.* Agar naryad beruvchi naryadning «Alohida ko'rsatmalar» satrida yozma ravishda ish rahbari yoki ishboshiga topshiriq bergan bo'lsa, brigadani boshqa ish joyiga ko'chirishni ish rahbari yoki ishboshi ham amalga oshirishi mumkin.

➤ Bitta havo elektr uzatish tarmog'i, havo aloqa uzatish va kabel elektr uzatish tarmoqlarini hamda elektrostansiya va podstansiyalarni 1000 V kuchlanishgacha bo'lgan elektr uskunalarning har xil ish joylarida brigadani boshqa ish joyiga ko'chirishni ishboshi naryadda rasmiylashtirmasdan amalga oshiradi.

➔ Brigadani boshqa ish joyiga ko‘chirish naryadda rasmiylashtiriladi. Navbatchi yoki tezkor-ta‘mirlash xodimidan bo‘lgan ishlashga ijozat beruvchi brigadani ko‘chirishni naryadning har ikkala nusxasida rasmiylashtiradi.

➔ Elektrostansiya va podstansiyalarning elektr uskunalarda uskunadan kuchlanishni olmay bajariladigan ishlarda naryad faqat brigadani bir taqsimlovchi uskunadan boshqa taqsimlovchi uskunaga ko‘chirishda rasmiylashtiriladi.

➔ Farmoyish bilan ish bajarilayotganda barcha elektr uskunalarda brigadani boshqa ish joyiga ko‘chirish rasmiylashtirishni talab qilmaydi.

IV. Ish jarayonida tanaffus va ish tugashini rasmiylashtirish.

➤ **Ish** kuni mobaynidagi tanaffus vaqtida (ovqatlanish uchun, ish sharoiti tufayli) brigada ish joyidan chiqarilishi hamda taqsimlovchi elektr uskuna joylashgan xona eshigi qulflab qo'yilishi zarur. Naryad ishboshida qoladi.

➤ Brigada a'zolarining tanaffusdan so'ng ishboshisiz ish joyiga qaytishga haqlari yo'q. Tanaffusdan so'ng ishboshchi (nazorat qiluvchi) brigada naryadni rasmiylashtirmasdan ishga qo'yadi.

➤ Ish kuni tugashi tufayli ishda tanaffus bo'lsa brigada ish joyidan chetlashtirilishi kerak. SHiorlar, to'siq, bayroqcha va erga ulagichlar olinmaydi.

➤ Ishboshi naryadni ishlashga ijozat bergan xodimga berishi, u yo'q bo'lgan taqdirda esa bu naryadni maxsus ajratilgan joyga, masalan, o'z kuchini yo'qotmagan naryadlar jildiga solib qoldirilishi kerak.

➤ Mahalliy navbatchisiz elektr uskunada esa, ishboshi ish kuni tugagandan so‘ng naryadni o‘zida olib qolishiga ruxsat beriladi. Ishboshi ish tugashini naryadning o‘zidagi nusxasida qo‘l qo‘yib rasmiylashtiradi.

➤ Kelgusi kunlarda tayyorlangan ish joyiga brigadani qayta qo‘yish ishlashga ijozat beruvchi yoki uning ruxsati bilan ish rahbari tomonidan amalga oshiriladi. Buning uchun yuqori tezkor xodimning ijozatini olish talab qilinmaydi.

➤ Agar naryadning «Alohida ko‘rsatmalar» satrida yozma ravishda qayd qilingan bo‘lsa, ishlashga ijozat beruvchining ruxsati bilan ishboshi brigadani tayyorlangan ish joyiga ishga qo‘yishi mumkin.

➤ Navbatchi yoki tezkor-ta‘mirlash xodimlaridan ishga ijozat beruvchi tomonidan amalga oshiriladigan brigadani ishga qo‘yish naryadning har ikkala nusxasida rasmiylashtiriladi.

➤ Ish rahbari yoki ishboshi tomonidan amalga oshiriladigan brigadani ishga qo‘yish, faqat naryadning ishboshida bo‘lgan nusxasidagina rasmiylashtiriladi.

➤ Kelgusi kun ishni boshlashidan oldin ishboshi ish joyida qoldirilgan shior, to‘siq, bayroqchalarning bus-butunligiga, to‘laligiga, butligiga hamda erga ulagichlarni o‘z joyida mustahkam turganligiga ishonch hosil qilgandan keyingina brigadani ishlashga ijozat beradi.

➤ Ish to‘liq tugallangandan so‘ng ishboshi brigadani ish joyidan chiqarishi, brigada qo‘ygan vaqtinchalik to‘siq, shiorlar, bayroqcha va erga ulagichlarni olib, elektr uskuna joylashgan xona eshiklarini berkitib, qulflab va naryadda o‘z imzosi bilan ish tamom bo‘lganini rasmiylashtirishi kerak. Ish rahbari ish joyini tekshirib ish tamom bo‘lganini naryadda rasmiylashtiradi.

➤ Ishboshi ish to‘liq tamom qilinganini, talablarini bajargani to‘g‘risida ijozat beruvchiga, u mabodo yo‘q bo‘lgan taqdirda ish joyini tayyorlashga va ishlashga ijozat berishga ruxsat etgan shaxsga xabar berishi kerak.

➤ Ish to‘liq tamom bo‘lganini rasmiylashtirilgan naryadni ishboshi uni ijozat beruvchi shaxsga topshirishi yoki u yo‘q bo‘lgan taqdirda maxsus ajratilgan joyda, masalan, o‘z kuchini yo‘qotmagan naryadlar saqlanadigan jildga solib qoldirishi kerak.

➤ **Ish to'liq tamom bo'lgandan so'ng naryadni yuborish qiyinchilik tug'dirsa, u holda ijozat beruvchining, u yo'q bo'lgan taqdirda ish joyini tayyorlashga va ishlashga ijozat berishga ruxsat etgan shaxsning ruxsai bilan ishboshi naryadni o'zida qoldirishi mumkin. Bunday holda, shuningdek ishboshi o'rindoshlik bilan ishlashga ijozat beruvchi shaxs vazifasini bajarsa, ish boshi ertasi kundan kechiktirmay naryadni navbatchiga yoki naryad beruvchi xodimga uzoq, bo'limlarda esa bo'lim ma'muriy-texnik xodimga topshirishi kerak.**

➤ **Ishlashga ijozat beruvchi ish to'liq tamom bo'lgani rasmiylashtirilgan naryadni olgandan keyin ish joyini ko'zdan kechirib chiqishi hamda ish joyini tayyorlashga va ishlashga ijozat berishga ruxsat etgan shaxsga ish to'liq tamom bo'lganligi va elektr uskunani ulash mumkinligi haqida xabar berishi kerak.**

V. Sinov savollari.

- 1. Ish joyini tayorlash uchun qanday texnik tadbirlar qo'llaniladi?**
- 2. Kommutatsion apparatlarning kalitlariga qanday xavfsizlik shiorlar osib qo'yilishi zarur?**
- 3. Ish joyini kim tayyorlashi mumkin?**
- 4. Ish jarayonida nazorat olib borish.**
- 5. Brigadani boshqa ish joyiga ko'chirish.**
- 6. Ish jarayonida tanaffus va ish tugashini rasmiylashtirish.**